

Manbashunos, muzeyshunos olim Nozim Habibullayev vafot etdi



Habibullayev Nozim Nasibullayevich – manbashunos, muzeyshunos olim, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

U 1951-yil 7-iyunda Toshkentda tugʻilgan. 1968-1973-yillarda Toshkent davlat universiteti sharq fakultetining arab boʻlimida taʼlim oldi. Universitetni tugallagach bir yil davomida Oʻzbekiston Telegraf Agentligida muxbir boʻlib ishladi. 1974-yilda OʻzR FA Tarix institutining qadimgi va oʻrta asr tarixi boʻlimiga kichik ilmiy xodim boʻlib ishga oʻtdi. 1988-yilda Institutning ilmiy kengashida “Бумажное производство в Средней Азии” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1989-yilda Tarix institutining qadimgi va oʻrta asr tarixi boʻlimiga mudir etib tayinlandi. 1996-2014-yillarda OʻzR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori lavozimida 18 yil davomida faoliyat olib bordi. U bevosita muzey tashkil etilishining asoschilaridan biri boʻlib, Muzey fondining boyishida, yangi koʻrgazmalar, ilmiy loyihalar, mahalliy va xalqaro miqiyosda tashkil etilgan konferensiyalarning tashkilotchisi sifatida muhim ishlarni amalga oshirdi. Xususan, uning rahbarligida ilk bora xorijning 13 dan ortiq yirik muzeylari hamda 10 dan ortiq shaxsiy kolleksiyalarida saqlanayotgan Temuriylarga oid ashyolar tadqiq etilib, ular asosida yangi koʻrgazmalar tashkil qilindi va Muzey fondi yangi eksponatlar, fotosuratlar bilan boyidi. Shu bilan birga N.N.Habibullayev Temuriylar davri sanʼati va madaniyatini targʻib etishga doir xalqaro anjumanlarning Muzeyda ilk bor tashkil etilishida ilmiy koordinator sifatida ham faoliyat olib bordi.

Olim oʻz faoliyatida qator xorijiy davlatlarda ilmiy safarlarda boʻlib, xalqaro konferensiyalar va simpoziumlarda oʻz maʼruzalari bilan ishtirok etdi. Shu bilan birga olim Koreya, Yaponiya, Xitoy olimlari bilan hamkorlikda ishlanayotgan, Samarqand qogʻozini yaratish va uni targʻib etishga bagʻishlangan xalqaro loyihada ham ishtirok etdi.

2019-yilda N.Habibullayev masʼulligida “Oʻzbekiston tarixi xrestomatiyasi”ning IV jildi qayta nashrga tayyorlandi.

Oʻzbekiston madaniyati tarixini asrash, tadqiq va targʻib etish bilan bogʻliq masalalar bevosita uning rahbarligida olib borilgan qator fundamental loyihalarda, koʻrgazmalarda va 100 dan ortiq ilmiy nashrlarda oʻz ifodasini topdi. U 100 ga yaqin ilmiy va 100 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar, 3 ta monografiya muallifidir. Uning rahbarligida 1 ta fan doktori va 3 fan nomzodi tayyorlangan.

Isteʼdodli olim, ilgʻor tashkilotchilik va yuksak insoniy fazilatlar bilan respublika hamda xorijiy olimlar

hurmatini qozondi.

Uning xizmatlari davlatimiz tomonidan ham yuksak baholanib, “Shuhrat” medali (1996-y.), “Mehnat shuhrati” ordeni (2001-y.), “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 25 yil” esdalik ko‘krak nishoni (2016-y.) bilan taqdirlangan.

O‘zR Fanlar akademiyasi jamoasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi, dotsent Habibullayev Nozim Nasibullayevichning bevaqt vafoti munosabati bilan uning oila a‘zolariga chuqur ta‘ziasini izhor etadi.